

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

TIBIYOT KLASTERINING AVZALIKLARI

Termiz davlat pedagogika instituti

Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrası

o'qituvchisi **Ismoilova Dilfuza Ibodullayevana**

Geografiya ta'lim yo'nalishi

1- bosqich talabasi **Panjiyev Ziyodullo Karim o'g'li**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi islohatlar qanday moliyalashtirishi hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat aholisining salomatligini yaxshilash, sog'liqni saqlash xizmatlarini yangilash va ularning sifatini oshirishdan iboratligi ham takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Klaster, shifokor, qishloq vrachlik punktlari, salomatlik, JSST, Sug'urta, Soliq, Yuridik va jismoniy shaxs, reproduktiv salomatlik, kasallik, epidemiya, aholi, tibbiy xizmat, tez tibbiy yordam, ekologiya.

Abstract: This article provides information on how Uzbekistan's health care reforms are interpreted in the world and the rapid implementation of Uzbekistan's health care reforms in recent years. It was also noted that the main goal of these reforms is to improve the health of the country's population, update healthcare services and increase their quality.

Keywords: healthcare system reform, medical education, healthcare infrastructure, telemedicine, prevention and health promotion, international cooperation

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как реформы здравоохранения Узбекистана интерпретируются в мире, а также о быстрой реализации реформ здравоохранения Узбекистана в последние годы. Также было отмечено, что основной целью данных реформ является улучшение здоровья населения страны, обновление медицинских услуг и повышение их качества. Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

Klaster siyosati — klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ularning shakllanishini ragʻbatlantiruvchi institutlarni rivojlantirish, shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishni taʼminlaydigan klasterlar va klaster tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat va jamoat chora-tadbirlari va mexanizmlari majmuidir.

Mamlakat yoki mintaqaning klaster siyosati uni amalga oshirishning taʼsiri va xatarlari nuqtai nazaridan optimallashtirilgan klaster tashabbuslari portfelini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar sifatida taqdim etilishi mumkin.

Davlat klaster siyosati, mintaqaviy klaster siyosati va tarmoq klaster siyosatiga boʻlinadi

Klaster siyosati odatda muayyan korxonalar yoki tarmoqlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan, anʼanaviy „sanoat siyosati“ning muqobili sifatida qaraladi.

Rossiya Federatsiyasining Iqtisodiy rivojlanish vazirligi Rossiya Federatsiyasining klaster siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, ushbu masalada ijro etuvchi hokimiyat organlarini muvofiqlashtirish va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash choralari shakllantirish uchun javobgardir. Mintaqaviy darajada klaster siyosati Rossiya Federatsiyasining federal okruglari va subʼektlarining strategiyasi doirasida shakllantiriladi va mintaqaviy ijro etuvchi hokimiyat organlari va klasterni rivojlantirish markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Tarmoqlarda klaster siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun tegishli vazirliklar (Rossiya Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Rossiya sanoat vazirligi va boshqalar) masʼuldir. 2010-yildan beri Rossiyada klasterni rivojlantirish markazlarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash choralari amalga oshirilmoqda. 2012-yilda Rossiya hukumati davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan innovatsion hududiy klasterlar roʻyxatini tuzdi. Klaster yondashuvi davlat dasturlarini, federal okruglarning strategiyalarini, Rossiya Federatsiyasi subʼektlarining strategiyalarini shakllantirishda qoʻllanadi. Klaster siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

Klasterlarni institutsional rivojlantirishga koʻmaklashish; korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning oʻzaro hamkorligi samaradorligini orttirishga

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish; federal darajada innovatsion hududiy klasterlar ro‘yxatini shakllantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; klasterlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishni ta‘minlash, shu jumladan, kasb-hunar ta‘limi tizimi samaradorligini oshirish, korxonalar va ta‘lim tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, muhandislik-transport infratuzilmasini, uy-joy qurilishini rivojlantirishga maqsadli investitsiyalarni yo‘naltirish. Klaster siyosati tanqidchilari quyidagilarni ta‘kidlaydilar:

Ishlab chiqarishning ma‘lum bir hududda klaster doirasida kontsentratsiyasi mintaqa iqtisodiyotining barqarorligini pasaytiradi, uning diversifikatsiyasini pasaytiradi;

Ma‘lum bir hududda klasterda ishlaydigan odamlarning ustunligi innovatsiyalarni kamaytiradi, chunki bu ko‘p jihatdan sezilarli darajada farq qiladigan bilim va tajribaga ega bo‘lgan odamlarning aloqasi natijasidir; qarama-qarshi yondashuv o‘z-o‘zini qayta ishlab chiqaradigan guruh fikrini, eski g‘oyalarni, stereotiplarni va yondashuvlarni takrorlashni keltirib chiqaradi;

Klaster shakllanishini rag‘batlantirish an‘anaviy sanoat siyosati chora-tadbirlari bilan bir xil subsidiya hisoblanadi.

Sovet davridan beri ma‘lum bo‘lgan avtomobil klasteri Samara viloyatida joylashgan Samara-Tolyatti avtomobil klasteri.

Muvaffaqiyatli rivojlanayotgan klasterning yana bir misoli Kaluga bo‘lib, u yerda avtomobillar va avtokomponentlar ishlab chiqarish klasteri faol rivojlanmoqda, uning yadrosi Volkswagen, Volvo Truck, PeugeotCitroen alyansi va Mitsubishi Motors hisoblanadi.

Skolkovo innovatsion markazi Rossiyani modernizatsiya qilishning ustuvor tarmoqlarida (telekommunikatsiya, tibbiy asbob-uskunalar, energiya samaradorligi, axborot texnologiyalari va boshqalar) faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun maxsus iqtisodiy shart-sharoitlarni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan, qurilayotgan ilmiy-texnologik majmuadir.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida klaster siyosatini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Yevropa klaster observatoriyasi Yevropadagi klasterlarni aniqlash va ularni tahlil qilishni maqsad qilgan. O‘zbekistonning har bir viloyatida yirik tibbiy muassasalar asosida “tibbiyot klasterlari” tashkil etiladi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog‘liqni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

saqlash sohasini isloh qilishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ma'lum qilindi. Qayd etilishicha, Guliston shahridagi Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish Respublika ilmiy markazi filiali va viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasi bir hududda bo'lib, unga tutash yoki atrofida 10 ga yaqin tibbiyot muassasasi joylashgan. Ularni viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasiga yagona boshqaruv asosida birlashtirib, "tibbiyot klasteri"ga aylantirish, tibbiyot kolleji negizida tibbiyot oliygohini tashkil etish uchun barcha zaruriy infratuzilma mavjudligi ko'rsatib o'tildi.

"Ushbu tibbiyot muassasalarini viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasiga yagona boshqaruv asosida birlashtirib, "tibbiyot klasteri"ga aylantirish, tibbiyot kolleji negizida tibbiyot oliygohini tashkil etish uchun barcha zaruriy infratuzilma mavjud. Hududlarda tibbiy xizmat ko'rsatish barcha yo'nalishlar bo'yicha bir joyga mujassamlashtirilishi — ilg'or va samarali amaliyot. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida bu borada ham ishlar mavjud Xususan: Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlari tashkil etiladi; Qashqadaryoda bolalar shifoxonasi, tug'ruq kompleksi, skrining markazi, reproduktiv salomatlik markazi joylashgan mujassam bir kompleks "Ona va bola" klasteri barpo etiladi. Ushbu klaster bola tug'ilishidan boshlab, to 18 yoshga to'lgunga qadar bir joyda kompleks tibbiy xizmat olish imkoni yaratiladi.

Chirchiq, Yangiyo'l, Olmaliq, Nurafshon shaharlarida hamda Shayhontahur tumanida poliklinika va stasionar muassasalarni birlashtirgan holda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda qulayliklar yaratiladi.

Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida "Guliston tibbiyot klasteri"ning birinchi bosqichi ish boshladi. U 520 o'rinli bo'lib, 5 ta davolash muassasasi va viloyat diagnostika markazi negizida tashkil etildi. Bunda barcha bo'limlar, diagnostika va laboratoriya tekshiruvlari markazlashib, bir bino ichida joylashadi. Tibbiyot klasteri tashkil etilishi orqali davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish uchun to'laligicha zamin yaratiladi. Qolaversa, tibbiyotda innovatsiya va biotexnologiya ishlari uchun yo'l ochiladi. Tibbiy yordam ko'rsatishning uchinchi darajasida tibbiy xizmat ko'rsatishning yangi modeli yaratilib, endovaskulyar xirurgiya, kardioxirurgiya, yuqori texnologik davolash usullari, transplantatsiya xizmatlari tibbiyot klasterida to'laligicha yo'lga qo'yiladi.

Bemorni davolashda bir vaqtning o'zida kardiolog, okulist yoki endokrinolog maslahati kerak bo'lishi mumkin. Bunda, boshqa davolash muassasasida zarur mutaxassis ko'rigidan o'tib, ularni xulosasini olib ovorayu sarson bo'lishi, vaqt

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

sarflashi kerak bo'lardi. Tibbiyot klasterida esa bu kabi ovoragarchiliklarni oldi olinadi. Bemor "bir tom ostida" barcha zarur muolaja va maslahatlarni olib vaqtini ham, mablag'ini ham tejaydi.

Guliston tibbiyot klasterining birinchi bosqichida terapiya bo'limi yangi binoda ishga tushdi va bu bino eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Rossiya, Belarus va Turkiyada malaka oshirib qaytgan, yangi hamda zamonaviy tibbiyot jihozlarini bemalol ishlata oladigan malakali shifokorlar esa soha samaradorligini yanada oshiradi.

— Yaratilgan shart-sharoitlar haqida eshitgan ayrim malakali shifokorlarimiz arab davlatlari, misol uchun Yamandan qaytib o'zimizda ishlash istagini bildirishmoqda, 40 yillik tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, hozirgi yaratilgan sharoitlar bundan 20 yil avvalgilardan yer bilan osmoncha farqi bor. Juda ilgarilab ketdik. Bizning tibbiyotdagi eng yaxshi jihatimiz nima bilasizmi? Barcha bemorlar o'ziga zarur tibbiy yordamni qisqa vaqt oralig'ida olish imkoni bor, boshqa davlatlardagi kabi bir necha hafta navbat kutib turmaydi". Masalan, zarur hollarda shoshilinch tibbiy yordam navbatsiz ko'rsatiladi. Rejali kelgan bemorlar esa yo'llanma bilan qabul qilinadi. Ko'p narsalarni xorijga solishtirishni yaxshi ko'ramiz. Xorijiy davlatlarda bir necha marta bo'lib, ularning tajribasini o'rganish jarayonida shunga guvoh bo'ldimki, ba'zi bir operatsiyalar uchun bemorlar 3-5 oygacha navbat kutishadi.

Ba'zida bemorni holati o'ta jiddiy bo'lsa, tezlik bilan jarrohlik amaliyotlarini o'tkazamiz yoki boshqa davo choralari ko'llaymiz. Hozir yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari ham viloyatda amalga oshirili joriy qilinmoqda. Misol uchun, bir necha yillar muqaddam faqat chet elda qilingan jarrohlardan biri endoprotez (son bo'g'imidagi kosachaning bosh chanog'ini almashtirish) o'rnatish uchun hozirda malakali shifokorlar va maxsus zamonaviy tibbiy qurilmalar o'zimizda yetarli. O'tgan yil viloyat miqyosida bu kabi 30ta jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Ayni vaqtda bir hisob-kitob qilib ko'rdik. O'tgan yil ikki ming nafar bemor Toshkentga borib davolangan. Bemorlarga qulaylik yaratish, Toshkentga borib-kelish sarf-xarajatlarini kamaytirish maqsadida hech bo'lmaganda bu kabi bemorlarning 50 foizini o'zimizda davolashga harakat qilamiz. Kerak bo'lsa, poytaxtdan shifokor chaqiramiz. Hozir joylardagi mutaxassislar bilan bog'lanib, jarrohlik amaliyotiga muhtoj bemorlarni bizga yuborishlarini tushuntirayapmiz. Negaki klasterimiz maxsus laboratoriyalar va zamonaviy jihozlar bilan jihozlangani bois, imkoniyatlarimiz kengaymoqda.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

Oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri tizimga davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlarini toʻliq joriy etish. Ana shunda aholining barcha qatlamlariga kerakli tibbiy yordam koʻrsatish shart-sharoitlari va moliyaviy imkoniyatlari yaratiladi. Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov bugungi hududlarga tashrifi avvalida Termiz shahrida bunyod etilayotgan 300 oʻrinli tibbiyot klasteri qurilishi bilan tanishdi. Kompleks atrofni obodonlashtirish, yashil zonalar barpo etish, ichki jihozlash ishlarining borishi koʻzdan kechirildi.

Soha mutasaddilari kompleksga eng malakali, sohadagi ilgʻor tajribaga ega shifokorlarni tanlov asosida ishga jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berishdi. Viloyat rahbari barcha zamonaviy sharoitlarga ega klasterni tashkil etish bilan ish bitmasligini, uning mazmuniga – sifatli va eng soʻngi zamon talablari darajasida tibbiy xizmat koʻrsata oladigan kadrlar bilan taʼminlash zarurligini qayd etdi. Shundan soʻng, viloyat rahbarining hududlarga tashrifi Termiz tumanida davom etdi. Ogʻir hudud sifatida tanlab olingan, “qizil” toifadagi “Sharof Rashidov” mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishildi. Tuman rahbarlari, kommunal sohadagi viloyat boshqarmalari mutasaddilari mahallada amalga oshiriladigan ishlarni taqdimot qilishdi. Viloyat rahbari mahalla hududini koʻzdan kechirib, mavjud holatni koʻzdan kechirdi. Aholi bilan muloqot qilib, ularning muammolarini tingladi. Masʼullarga aholi tomonidan koʻtarilgan masalalarni hal etish boʻyicha vazifalar belgilab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M-372-fond, 1-roʻyxat , 82-yigʻma jild, 11-varaq.
2. Karimov I.A. “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini oʻrganish boʻyicha oʻquv uslubiy qoʻllanma –Toshkent: Oʻzbekiston, 2012- B 89.
3. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet. 3 Oʻzbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M372-fond, 1-roʻyxat , 82-yigʻma jild, 11-varaq.
4. Karimov I.A. “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini oʻrganish boʻyicha oʻquv uslubiy qoʻllanma –Toshkent: Oʻzbekiston, 2012- B 89. 4. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

5. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasi hisobotlari. 2010 yil. – В.15

6. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasi *„Распоряжение от 17 ноября 2008 г. N 1662-р с сайта Консультант-плюс“*. 2008-yil 18-dekabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2009-yil 27-fevral.

7.↑ *V sootvetstviu s Metodicheskimi rekomendatsiyami Minekonomrazvitiya Rossi*^[sayt ishlamaydi]

8↑ *„Invest in Samara“*. 2017-yil 25-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2017-yil 24-oktyabr.

9↑ Andrey Pushkin. *Pravovoy rejim inostrannix investitsiy v Rossiyskoy Federatsii*. — M.: Alpina Pablisher, 2012. — S. 216. — ISBN 978-5-9614-1954-2.

10.↑ *„Европейская кластерная обсерватория“*. 2012-yil 20-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2009-yil 14-may.